

«TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH»

*Ibragimova Dilorom Ismoiljanovna
Sirg'ali tibbiyot kolleji oliy toifali o'qituvchisi
O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri*

Annotatsiya. Maqolada ta'lism tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarini qo'llash, ta'lism jarayonini loyihalash haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lism tarbiya, pedagogik texnologiya, loyihalashtirish, faoliyat, tamoyil.

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda uzlusiz ta'lism tizimini takomillashtirish yo'lida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishi sifatida ta'lism jarayonida texnologiyalarini qo'llashdan iborat ekanligi e'tirof etildi. Bu jarayonning samaradorligi o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lism texnologiyalarini ta'lism amaliyotida faol qo'llanilishi, shuningdek, rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalaridan xabardor bo'lish quyidagi shartlar asosida ta'minlanadi. Pedagogik vazifaning hal etilishiga o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlarining mazmuni, vositalarini loyihalash orqali erishiladi. Zamonaviy sharoitda ta'lism jarayonini texnologiyalashtirish uni loyihalashga nisbatan yangicha yondashuv, ya'ni ta'lism jarayonini texnologik strukturasiga muvofiq yoritish zaruratini taqozo etadi.

O'qituvchi kasbiy faoliyatini tashkil etishda ta'lism jarayonini loyihalash alohida ahamiyatga ega. Har bir o'quv mashg'ulotini o'rganish alohida mavzu va bo'limlarni loyihalash asosida amalga oshiriladi.

Ta'lism jarayonini loyihalashda nafaqat har bir tarkibiy qism, balki ular orasidagi aloqalar ham modellashtiriladi hamda loyihalash qonuniyatları loyihalash tamoyillarining nazariy asoslarini ishlab chiqishga, pedagogik faoliyat amaliyotida qo'llashga zamin tayyorlaydi. Texnologik jarayonda o'quvchilar faoliyati modelini loyihalashning bosh elementi sifatida ifodalanadi. Ta'lism jarayoni tuzilmasida asosiy tizimlashtiriluvchi ta'lism mazmuni va o'quvchi faoliyati texnologik jarayon hisoblanib, uning mazmunini o'quvchilarning ijtimoiy tajriba asoslarini o'zlashtirib olishga yo'naltirilgan o'quv faoliyati tashkil etadi. Har bir o'quv fani bo'yicha ta'lism mazmuni umumiyligi ta'lism maqsadi va vazifalariga muvofiq belgilanadi. Faoliyatli yondashuv nuqtayi nazaridan umumiyligi o'rta ta'lism mazmunini tashkil etuvchi har bir unsur (element) subyekt faoliyatining turlaridan biriga muvofiq kelishi kerak. Subyekt faoliyatining turlari, o'z navbatida, aniq modellar yig'indisi sifatida umumlashgan faoliyat modellari orqali ifodalanishi zarur. O'quvchilar faoliyati modeli

tizimlashtiriluvchi element bo‘lib, o‘quvchining yaxlit faoliyatini mazmunini aniqlashga xizmat qiladi. Markazlashtirish tamoyili loyihalashni quyidagi tartibda amalga oshirishni talab etadi:

- faoliyat modellarini maqsadga muvofiq yaratish, ularni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish usullari, vositalarini tanlash (texnologik operatsiyalar);
- o‘quv faoliyatini boshqarish usullari (o‘qituvchi faoliyatini)ni asoslash.

Refleksivlik tamoyilisubyektning o‘ziga, shaxsiy faoliyatiga va bilimiga baho berishi, o‘zgalarning u haqidagi fikrlari va ular o‘rtasidagi hamkorlik faoliyatiga oid munosabatlarni tavsiflaydi. Loyihalash jarayonida o‘qituvchiga doimo ta’lim jarayoni, uning aniq va ideal sharoitlari, o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan ehtiyojlari, ularni to‘ldirish imkoniyatlari, shaxsiy sifat va qobiliyatlar, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish imkoniyatlarini inobatga olishi maqsadga muvofiq. Refleksivlik tamoyili yaratiladigan ta’lim jarayonining loyihasini ta’lim jarayoni ishtirokchisi – subyektning ehtiyojlari va imkoniyatlarini tahlil qilish asosida uzuksiz tuzatib, to‘ldirib borishni talab etadi. Natijaviylik tamoyili pedagogik shart-sharoitlar- ning qulayligi, oz vaqt va kuch sarflash evaziga samarali natijalarga erishishni tavsiflaydi. Natijaviylik- ijtimoiy tajriba faoliyat modellari mazmuni, texnologik operatsiyalar, ularni o‘zlashtirish, boshqarish uslub- larini tanlash, o‘quv faoliyatining muvofiqligi, ta’lim-tarbiya vositalari, texnologik jarayonda subyektning qisqa vaqt va kuch sarflashi vositasida belgilangan maqsadga erishishni nazarda tutishi lozim. Har bir ta’lim jarayoni bir qator obyektiv va subyektiv omillar ta’sirida amalga oshadi. Ular sirasiga o‘qituvchi va o‘quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy hayot sharoitlari, ta’lim muassasalari atrofidagi ijtimoiy ishlab chiqarish va tabiiy iqlim muhiti, o‘quv muassasasining o‘quv-moddiy bazasi, o‘qituvchilarning kasbiy malaka darajasi, ta’lim muassasasi yoki ma’lum sinfdagi ma’naviy-psixologik muhit, o‘quvchilarning o‘quv imkoniyatlari, sinfning intellektual salohiyati, jamoaning shaxslararo munosabatlari kiradi.

Ta’lim jarayonini loyihalashda o‘qituvchi ana shu omillarni hisobga olishi zarur. Bola maktabostonasiga qadam qo‘yanidan boshlab uning faoliyat ko‘lami (o‘z-o‘ziga xizmat, mehnat, dam olish tarzida) kengayadi. Bu kabi faoliyat ko‘nikmalarini egallashi natijasida ijtimoiy tajribaga ega bo‘lib boradi. Shuning uchun ta’lim jarayonining samarali bo‘lishi, uni loyihalashda ta’lim mazmuni va boshqa faoliyat modellari hisobga olinishi, ularni o‘quvchilar kundalik hayot faoliyatida egallab borishi ta’milanishi zarur. Ayni vaqtida umumiylar ta’lim muassasalarida shaxsni rivojlantirish va uni ijtimoiy hayotga moslashtirish muayyan qonuniyatlarga muvofiq psixolog va sotsiologlarning ishtiroklari (psixopedagogik tashxis xulosasi) asosida amalga oshiriladi.

Ta’lim jarayonini loyihalashda o‘qituvchi loyihami va bajaruvchi sifatida loyihani amalga oshirishning qulay yo‘lini tanlaydi. Loyihalashda o‘quvchini o‘quv faoliyatiga yo‘naltiruvchi usullar, mustaqil ta’lim shakli, o‘z-o‘zini rivojlantirish va

o‘zini hurmat qilish imkoniyatlarini aniqlash zarur. “Pedagogik texnologiya” tushunchasi esa o‘z mohiyatiga ko‘ra, pedagogik faoliyatning eng muhim ikki jihatni, ya’ni, ta’lim hamda tarbiya jarayonining texnologiyalashtirilishini ifoda etishi zarur. Barkamol shaxsni shakllantirish muammosining ijtimoiy zaruriyat sifatida e’tirof etilayotganligini nazarda tutadigan bo‘lsak, ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni qaror toptirish, mazkur jarayonni texnologiyalashtirishga erishish muhim pedagogik vazifalardan biri sanaladi. Ta’lim jarayonidan farqli tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda bu jarayonning samarasini qisqa muddat oralig‘ida ko‘ra olish imkoniyati yo‘q. Tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari, talaba va o‘qituvchi o‘rtasida yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan ziddiyatlar tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirishga nisbatan ijodiy va mas’uliyatli yondoshish zarurligini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Roziqov O., Og‘ayev S., Mahmudov M., Adizov B. Ta’lim texnologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 2019.
2. Ishmuhamedov R., . Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T., 2014.
3. Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T., 2016.